



## MUHAMMAD SHAYBONIYXON HAYOTI VA IJODINING O'RGANILISHI

**Shermamatova Shohista Baxtiyor qizi**  
*Qarshi davlat universiteti*  
*Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada Muhammad Shayboniyxon shaxsiyati, faoliyati va ijodining o'rganilish muammolari, ularni keltirib chiqargan sabablar xususida so'z boradi.

**Kalit so'z va iboralar:** ko'chmanchi o'zbeklar, Muhammad Shayboniyxon, o'zbek xonliklari, sovetlar davri, temuriylar, Bobur Mirzo, Muhammad Solih, "Shayboniyнома", millatning nomlanishi, shohlar shoiri, g'azal.

**Annotation.** The article talks about the problems of studying the personality, activity and creativity of Muhammad Shaibanikhan, and the reasons that caused them.

**Keywords and phrases:** Nomadic Uzbeks, Muhammad Shaibanikhan, Uzbek Khanates, Soviet era, the Timurids, Babur Mirza, Muhammad Saleh, Shaybaninama, name of the nation, the poet of kings, ghazal.

**Аннотация.** В статье говорится о проблемах изучения личности, жизни и деятельности Мухаммада Шайбани-хана, а также причинах, их вызвавших.

**Ключевые слова и фразы:** Кочевые узбеки, Мухаммад Шайбани Хан, Узбекские ханства, советская эпоха, Тимуриды, Бабур Мирза, Мухаммад Салих, Шайбанинома, название нации, поэт королей, газель.

Movarounnahrda bir asr hukmronlik qilgan shayboniylar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxon olim, din peshvosi, shoir, "...Amir Temur dan keyin Samarqandni obod qilgan ikkinchi hukmdordir" [15].

Lekin ming afsuski, Shayboniyxon va shayboniylar davri aksariyat tarixchi va adabiyotshunos olimlar tomonidan e'tiborsiz qoldirilmoqda. O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron ta'kidlaganidek, "Muhammad Shayboniyxon uzoq yillardan buyon o'zbek tarixi uchun, aniqrog'i, siyosatchiga aylangan tarixchilaru tarixshunosga aylangan siyosatdonlar uchun o'tmishimizning o'gay farzandi bo'lib qolmoqda. Sovet davridayam, bugungi kundayam nashr etilayotgan mumtoz she'riyat namunalarini qancha varaqlamang, uning adabiy merosi to'liq aks etmayotganiga guvoh bo'lasiz. Ilmni sharmanda qilish shu darajaga yetib bordiki, mustaqillikning ilk yillarida nashr etilgan "O'zbekiston tarixi" darsliklaridan birida Muhammad Shayboniyxon davri umuman kiritilmagan, qariyb bir asrlik tarixdan ko'z yumilgan edi. Bu ilmga mutlaqo zid holat, olimlikka xiyonat edi" [15].

Avvalo, Shayboniyxon va shayboniylar davriga bo'lgan bunday munosabatning yuzaga kelish sabablarini ko'rib chiqsak:



*Birinchi*dan, o‘zbek xonliklari va xonlariga bo‘lgan salbiy munosabat sovet davri mafkurasi mevalaridir. Bu haqda tarixchi olim Eldor Asanov o‘zining "Shayboniyxon shaxsiyati nega e‘tiborsiz qolmoqda? O‘zbek tarixining eng ziddiyatli nuqtasi haqida mulohazalar" nomli maqolasida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: "SSSRning Markaziy Osiyodagi respublikalari o‘zbek xonliklarining "tirigini" ko‘rgan, ularga qarshi kurashib, ularni qulatib, xarobalarida tuzilgan davlatlar edi. Xonliklar tarixini yozgan sovet fani o‘tmishni his-tuyg‘usiz yoritishga emas, ideologik raqibini toshbo‘ron qilishga urinardi. Bu xonliklar davriga xolis yondashishga, ayrim arzirli voqealar, yutuqlar, shaxslarga tadqiqiy e‘tibor qaratishga to‘sqinlik qilardi. O‘zbek tarixining qahramonlari, arboblari asosan XVI asrgacha bo‘lgan davrda yaahaganiga hech e‘tibor berganmisiz? Bu XVI asrdan so‘ng yirik arboblar chiqmaganidan emas, ularga e‘tibor qaratilmaganidandir" [17].. Sovet davrida xonliklarning toshbo‘ron qilinishi ijodkor xonlarni to‘sqinlik qildi, shu sababli ularning ijodi o‘rganilmay chetda qolib ketdi. Bu xususda adabiyotshunos olim Sherxon Qorayev "O‘zbek xonliklarida adabiy kechalar" (Muhammad Shayboniyxon va shayboniylar davri misolida) nomli monografiyasida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi:

"Ammo "biz uzoq vaqt (sobiq ittifoq davrida) ishq haqida Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Munis, Ogahiy, Muqimiy kabilar yozgan she‘riy va nasriy asarlarni qabul qilgan, e‘zozlagan holda (hukmdor shoirlar) Husayn Boyqaro, Ubaydiy (Ubaydullaxon), Amiriy (Muhammad Umarxon), Feruz (Muhammad Rahimxon) kabi shoirlarimizning she‘rlariga befarq qarab keldik" [6, 7-bet].

Yuqorida ham Muhammad Shayboniyxon jiyani Ubaydullaxonning nomi keltirilgan holda, uning nomi keltirilmagan. Shu xususda yana Sherxon Qorayev "Shayboniy sultonlar tazkirasi" nomli ilmiy risolasida quyidagilarni keltirib o‘tadi:

"Shayboniyxonni kim bo‘lganligini, dunyoqarashi va ma‘naviy qiyofasi qanday bo‘lganligini bilmoq va aniqlamoq uchun loaqal uning g‘azallarini o‘qimoq lozim. Faqat achinarli yeri shundaki, sho‘rolar davrida chop etilgan tarixiy va badiiy kitoblarda bu tarixiy shaxs haqida noto‘g‘ri taassurot hosil qilingan edi" [7, 19-bet].

*Ikkinchi*dan, Muhammad Shayboniyxon shaxsining e‘tiborsiz qoldirilishining asosiy sababi, uning temuriylar hukmronligiga barham berishi, Bobur Mirzo bilan "ziddiyat"i, uning Movarounnahrda chiqib ketishiga sababchi bo‘lganidir. Bu haqda falsafa fanlari nomzodi, dotsent Zamiraxon Isaqova o‘zining "Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shayboniyxon munosabatlariga





yangicha yondashuv" nomli maqolasida G. Vamberining quyidagi fikrlarini keltirib o'tadi: "Temuriy sulolasining yulduzi snayotgandi va 19 yoshli Bobur Mirzo uni to'xtatishga qodir emasdi. Chingizxon avlodi, Jo'ji ulusi [Oltin O'rda] vakili Shayboniy Muhammadxon temuriylarning o'zaro urushi alanga olayotgan va bosib olish uchun qulay fursat yuzaga kelayotgan lahzada ko'p sonli o'zbek otliq askarlari sharofati bilan allaqachon Movarounnahrning ko'plab muhim nuqtalarini amalda egallab olgandi. Bu omadli jangchi Temuriylar hukmronligiga nuqta qo'ydi" [16].

Mana shu Temuriylar hukmronligiga qo'yilgan nuqta Shayboniyxon va uning sulolasi uchun qora tamg'a bo'ldi. Lekin G. Vamberi ta'kidlaganidek, "Temuriy sulolasi yulduzi so'nayotgandi va 19 yoshli Bobur Mirzo uni to'xtatishga qodir emasdi". Haqiqatan ham, tarixiy vaziyat yangi hukmron sulolaning taxtga kelib davlatni birlashtirishi, o'zaro urushlarga nuqta qo'yishini taqozo qilmoqda edi. "...temuriylarning Movarounnahr tarixi sahnasidan tushishiga, Shayboniyxon emas, temuriy shahzodalarning o'zlari aybdor edilar, ya'ni Sohibqiron bobolari birlashgan saltanatning parchalanishi taxt talashgan shahzodalarning kelishmasligi, o'zaro ittifoqning yo'qligidan yuz berdiki, bu tarixiy haqiqat va tarixning qaytarilmas hukmi edi. Buning odil va xolis bahosini Bobur Mirzo "Boburnoma"da aniq - ravshan bitib qo'ygan" [16].

Bu xususda yana 8-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Ayni paytda, Movarounnahr aholisi temuriyzodalarning toj-taxt uchun o'zaro kurashlaridan charchagan ham edi. Movarounnahr zodagonlari, ruhoniylari va hatto oddiy aholining ma'lum qismi ham Muhammad Shayboniyxon timsolida Movarounnahrda tinchlik o'rnatishga qodir yagona shaxsni ko'rganlar. Shu sababli Muhammad Shayboniyxonni qo'llab - quvvatlaganlar" [13, 11-bet]. Eldor Asanovning yuqorida nomi keltirilgan maqolasida bu haqda yana quyidagilar bayon qilinadi: "...Semyonov "Istoriya narodov Uzbekistana"ning ikkinchi kitobida Shayboniyxon Movarounnahrni oson egallashini quyidagicha tushuntiradi: "Ko'chmanchi o'zbeklar musulmon edi va Temuriylar davlati aholisiga tushunarli tilda gapirardi. Ularning rahnamosi Shayboniyxon o'sha paytdagi musulmon madaniyati saviyasidagi odam edi, ikki mahalliy til - forsiy va turkiyni mukammal bilardi, ma'rifat va fanni yaxshi ko'ruvchi o'qimishli inson edi".

Shayboniyxonning chig'atoylarga mashhur murojaati uning uchun etnik tafovut bo'lmagaidan dalolat beradi:

Chig'atoy el meni o'zbek demasun,



Behuda fikr qilib, g'am yemasun" [17].

Bobur Mirzo va Shayboniyxon munosabatlari haqida so'z borganda esa: "Sho'ro davrida, hatto hozirda ham ayrim manbalarda Zahiriddin Muhammad Bobur va Shayboniyxon munosabatlari bir - biriga zid, oq va qora ranglarda talqin qilinganki, bir tarixiy shaxsga faqat ijobiy va boshqa tarixiy shaxsga salbiy baho berish haqiqatga to'g'ri kelmaydi..." [16].

Jurnalist O'ljaboy Qarshiboyev Shayboniyxon bizga "begona"mi?" nomli maqolasida: "Aslida ular o'rtasida o'ta katta adovatu, dushmanlik ham bo'lmagan. Shu bois Bobur bobomiz Shayboniyxon haqida salbiy fikrga bormagan. Buni uning "Mening g'ananim Shayboqxon tajribali, ko'p ish ko'rgan va ulug' yoshli kishi edi" degan fikrlarida ham ko'rinadi" [19].

Lekin ming afsuski, istiqloq yillarida ham Shayboniyxonga bo'lgan salbiy munosabatda ko'zga tashlanmoqda. Xususan, filologiya fanlari nomzodi I. Sulaymonov o'zining "Boburnoma"da Shayboniyxon g'olibligi va ma'naviy tanazzuli tasviri" nomli maqolasida Shayboniyxonni tomonidan Hirotning bosib olishi haqida so'z yuritib, quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Bobur Husayn Boyqaro xonadoniga Shayboniyxon solgan kulfatlar, ayollari uchun isnod tarzida qilgan haqoratomuz harakatlari, saroy begimlari va malikalarini olib beklari va lashkarlariga nikoh qilib, gohida nikohsiz taqdim qilishi kabi vaxshiyona, aqlga sig'maydigan, nojoiz harakatlaridan ko'plab misollarni keltiradi, uning ma'naviy jihatdan asl qiyofasini ochib beradi. Bunda garchi sirtidan Shayboniyxon g'olib bo'lsa ham, uning qilmishlari, ma'naviy qiyofasi jihatdan mag'lub shaxsni eslatadi. Asli nasabida temuriyzodalarga bo'lgan nafrati, Husayn Boyqaro xonadoniga bo'lgan adovati bois, bu xatti - harakati bilan u ma'naviy mag'lubligini ko'rsatadi. Shu bois ham Bobur Shayboniyxonning jirkanch qiyofasini barcha illatlari bilan badiiy tarzda ifodalab, uni fosh erishga intilgan" [10, 98-bet].

Bobur Mirzo "Boburnoma"da tarixiy voqelikni boricha bayon etgan. Kimnidir oqlash, kimnidir qoralash uchun emas! Bobur Mirzo faoliyatida ham amalda g'oliblik va ma'naviy mag'lublik holati "Yulduzli tunlar" romanida Samarqand Shayboniyxon tomonidan qamal qilingan paytda xalqning og'ir ahvolini ko'rib Bobur Mirzoning bo'lgan iqrorida o'z ifodasini topgan: "U bir vaqtlar o'zi Samarqandni yetti oy qamal qilib yotganda odamlarning boshiga qanchalik og'ir kulfatlar tushganini mana endi chinakam bilyapti. O'sha ocharchilikda sahhoflik rastasiga borganlarida o'g'li kunjara yeb shishib o'lgan, o'zi jinni bo'lib qolgan bir kampir xudoni qarg'ab, "Ilohim o'zi ham shu ko'yga





tushsin!" - deganini Bobir endi qasoskor taqdirning hukmiddek eslaydi..." [8, 220-bet]. Ikki sulola o'rtasidagi quda - andachilik munosabatlariga to'xtaladigan bo'lsak, bu haqda Zamiraxon Isaqova yuqorida nomi keltirilgan maqolasida ta'kidlaganidek, temuriylar va shayboniylar o'rtasidagi munosabatlar avvaldan mavjud bo'lgan. Bu munosabatlar Abulxaytxonning Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegimga uylanishidan boshlanib, keyinchalik Sulton Husaynning singlisi Badakabegim, Bobur Mirzoning besh nafar opa - singlisidan uch nafari - Xonzoda begim, Yodgor Sultonbegim, Ruqiya Sultonbegim, Bobur Mirzoning amakisi, Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzoning ikki qizi - Qorako'z begim, Sultonbegimlar shayboniyzodalar nikohida bo'lgan. Shayboniylar sulolasining eng yirik vakili bo'lgan Abdullaxonning otasi Iskandarxon ona tomondan Sulton Mahmudxon (Bobur Mirzoning tog'asi, Toshkent xoni)ning nabirasi edi. Shu jihatdan, Abdullaxonning Bobur Mirzoga qarindoshligi bo'lgan [15].

Ming afsuski, biz davlatimiz tarixida chuqur iz qoldirgan Shayboniyxon va uning sulolasini o'rganish bilan emas, aksincha, Bobur Mirzo va Shayboniyxonni taqqoslab, birini ustunliklarini topish-u, birini qoralash bilan bandmiz.

Eldor Asanov yuqorida nomi keltirilgan maqolasida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Aslida Shayboniyxon Bobur kabi bilimdon, ma'naviyati boy, bag'rikeng bo'lganmidi? Zahiriddin Muhammad Bobur va Shayboniyxonning qilgan ishlarini tarix parallelida solishtirib ko'radigan bo'lsak, Boburning toshi raqibinikidan ancha og'ir keladi". Bu o'zbek akademik doiralarida eng ko'p yangraydigan argumentdir.

...Bir shaxsga baho berish uchun uni boshqa shaxs bilan qiyoslash to'g'ri xulosalar keltirib chiqarmaydi: hamma birday buyuk, birday kuchli bo'la olmaydi, illo har kimning tarixda o'z o'rni bor. Shayboniyxon Temurchalik katta ishlar qilmagandir, lekin Temur ham Chingizxonchalik katta ishlar qilmagan. Qiyosning oxiri yo'q. Chamamda, ba'zi tadqiqotchilar Shayboniyxon obrazini bo'rttirib ko'rsatish Bobur obraziga putur yetkazadi, degan xavotirda bo'lsa kerak, zero Boburning ideallashtirilishi jarayonida Shayboniyxonning roli pasaytirilgan.

...O'tmishdagi ikki dushman bugungi avlodlar uchun birday ahamiyatli bo'lishi mumkin; qolaversa, birining "tosh bosishi" boshqasini ahamiyatini tushirmasligi kerak. Agar faqat "nisbatan ko'p tosh bosadiganlar"ni qadrlaydigan bo'lsak, o'zbek adabiyotida Navoiydan boshqa hech kim qolmasligi kerak edi. Nega barcha shoirlarni birday o'rgangan kabi barcha davlat arboblarni birday o'rganish, xotirasini ardoqlash mumkin emas?" [16].



Bizni e'tiborimizni tortgan yana bir fikr: "To'g'ri, Shayboniyxon ikkinchi darajali shoirlar bilan munosabatda bo'ldi. Temuriylar davridagi mashhur vakillar esa Safaviylar sulolasi hukmdori Ismoilshoh yoki Bobur huzuriga muhojir bo'lib ketdilar.

Shayboniyxon qoshida Binoiy, Muhammad Solih kabi temuriylar davrida tan olinmagan shoirlar qoldi" [6].

Tanganing ikki tomoni bo'ladi. Bizningcha, quyidagicha yondashish ham mumkin. Shayboniyxon raqib davlat shoirlari, ilmi fozillarini quchoq ochib kutib oldi, ularning ilm bilan, ijod bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratib berdi, qo'llab - quvvatladi. Chunki o'zi ham ustoz ko'rgan ilmi, ijodkor hukmdor edi. Mana tanganing ikkinchi tomonida nimalar bor! Xususan, R. Murtazayevaning oliy o'quv yurtlari talabalari uchun nashr etilgan "O'zbekiston tarixi" darsligida: "Yoshligida yetim qolgan Muhammad ukasi Mahmud bilan Muhammad Mazid Tarxon, Sultonali Mirzo homiyligida Turkiston, Samarqand, Buxoro shaharlarida ilohiyot olimlari Muhammad Xitoyi, Hofiz Husayn Busuriy kabi ulamolardan saboq olib, o'z davrining bilimdon, o'qimishli kishisi, iste'dodli shoiri bo'lib yetishdi" [5, 300-ber].

Adabiyotshunos olimi Shahnoza Rahmonova "Shayboniynoma" dostonidagi vazn imkoniyatlari" nomli maqolasida: "Alisher Navoiy "Majolis-un nafois"ning beshinchi majlisida Muhammad Solih haqida alohida to'xtaladi" - degan fikrlarni keltirib o'tadi [9, ].

Biz Hazrat Alisher Navoiyning Muhammad Solih haqidagi fikrlarini aynan keltirib o'tmoqchimiz: "Xatqa ham qobiliyati ko'pdur. Bu matla' aningdurkim: Hayam oshufta gar po'shida kokul mohi tobonash, Chi g'am az tiragil shab, chu boshad subh poyonash. (Tarjimasi: Kokil yorqin oydek yuzini yopib turar ekan, parishon emasman. Oxiri tong bo'lgandan keyin tun qorong'iligidan nima g'am?) [1, 127-bet].

Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida esa: "Bobir Hirotlik mashhur shoir Kamoliddin Binoiy bilan bundan uch yil oldin Samarqandga birinchi gal kelgan paytlarida tanishgan edi. Binoiyning san'atkor xattotlar tomonidan ko'chirilgan nodir qo'lyozma kitobi bor ekan. Kitob yig'ishga havasmand Bobir bu kitobga juda havasi keldi" [8, 204-bet].

"Yulduzli tunlar" ilmiy asar emas, lekin aniq tarixiy faktlar asosida yozilgan tarixiy romandir! Shuningdek, Hazrat Alisher Navoiy tomonidan yuksak e'tirof





etilgan shoirga nisbatan "...temuriylar davrida tan olinmagan shoir..." iborasini qo'llash nechog'li to'g'ri?

Ana endi ikkinchi masala: Shayboniyxon shaxsi, faoliyati va ijodini nima uchun o'rganishimiz kerak?

*Birinchidan*, millatimizni "o'zbek", vatanimizni "O'zbekiston" deb atalishi Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbek qabilalarining Movarounnahrda kirib kelishi bilan bog'liqdir. To'g'ri, professor X.Doniyorov "o'zbek" atamasining XI asrda ham qo'llanilganligi to'g'risida o'zining "O'z tariximizni bilamizmi?" nomli maqolasida keltirib o'tadi [11, 30-bet].

Lekin, "o'zbek" atamasining butun boshli millat ma'nosida qo'llanilishi Shayboniyxon boshliq o'zbek qabilalari nomi bilan bog'liq. Shayboniy o'zbeklarning mintaqadagi etnik vaziyatga ta'siri, yagona millat shakllanishidagi o'rni xususida Eldor Asanov yuqorida nomi keltirilgan maqolasida: "...Xalqni shakllantirishda o'zlik, nom juda muhim o'rin tutadi. O'zlikni tashkil etuvchi etnonim yoki politonim, uning ortida turgan tarixiy va ma'naviy kapital millatni birlashtirishda til yoki madaniyatdan ustunroq omildir. Bir tilda gapiruvchi moldavan va ruminlar bir - birini boshqa - boshqa millatlar hisoblaydi, lekin har xil tilda gapiruvchi xitoylar o'zini yagona millat hisoblaydi; bir tilda gapiruvchi xorvatlar, serblar, boshnoqlar o'zaro qirg'inbarot urushlar girdobida qolgan bir paytda turli etnoslar birlashuvidan tashkil topgan nemislar, fransuzlar va italyanlar dunyoni boshqarib keldi. Shayboniylarning o'zbek tarixidagi o'rnini ko'rsatuvchi bir fakt bor. Xorazm viloyati uzoq tarixi mobaynida ko'pincha alohida siyosiy va madaniy birlik bo'lib kelgan; XVI asr boshlarida ham Xorazmda, ham Movarounnahrda o'zaro qarindosh o'zbek sulolalari iqtidorga kelishi tufayli ularning o'zligi umumiylashgan, ularning negizida yagona millat shakllanishiga poydevor qo'yilgan. Buni yaxshi tushungan mashhur amerikalik o'zbekshunos Eduart Ollvort o'zbek xalqi va davlati tarixini O'zbekxondan va Abulxayrxondan boshlaydi [17].

O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov "O'zbekim" qasidasini bitib:

*Bu qasidam senga xalqim,*

*Oq sut - u tuz hurmati.*

*Erkin o'g'lingman, qabul et,*

*O'zbekim, jon o'zbekim!*

deb yoki Abdulla Oripov "O'zbekiston" qasidasida:

*Asrlarning silsilasida*



*Boqiy turgay koshonang sening.*

*Ulug' bashar oilasida*

*Mangu yorug' peshonang sening.*

*Mangu yorug' maskanim manim,*

*O'zbekiston, vatanim manim.*

deya faxr - iftixor tuyg'usini tuyganida, biz nega bu nom egalari bo'lgan Shayboniyxon va uning avlodlarini o'rganmasligimiz kerak!

*Ikkinchidan*, Muhammad Shayboniyxonning o'zi ham so'z san'atkori - shoir bo'lgan. Bu haqda O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron quyidagilarni bayon qiladi: "U shoir sifatida Shayboniyxon, Shohbaxt, Shoyboq, Shoybek, Sheboni, Shohibek, Shayboniy taxalluslari bilan she'rlar yozgan, kamdan - kam ijodkorga nasib etadigan rutba - "Devon" egasi bo'lgan. Bu devon 300 dan ortiq g'azal, ruboiy, tuyuq, chiston, ta'rix va boshqa janrdagi asarlarni o'z ichiga olgan. Devon Istanbulda To'pqopi saroyi muzeyidan saqlanadi.

Muhammad Shayboniyxondan nafaqat she'riy devon, shu bilan birga diniy mazmundagi "Bahr ul - hudo" nomli doston, o'g'li Temur Sultonga atab pand - nasihatlardan iborat doston yozgan, demak, hayoti beto'xtov jangu jadal ichida kechganiga qaramay katta ma'rifiy meros qoldirgan inson edi. Ishonchim komilki, Hazrat Mir Alisher Navoiy xonning "Devon"i, dostonu hikmatnomasi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lganda, bu asarlarga munosib baho bergan bo'lardi" [15]. Xususan, Shayboniyxon "Devon"ida: "Samarqandni olganda base Ko'k - saroyda to'y qilib, valadimni taxtga mindurub, ul majlisda zebo sanamlarni kelturub, o'g'lum Muhammad Temur Bahodirni sandalda o'lturtib, bu g'azalni aytim:

*Ey manga sajdagohi ol qoshlaring mehrobidur,*

*Bu ko'ngul qushin tutarg'a shul ko'zing sayyodidur.*

*Novaking o'qlari jonim ko'z yoshimdin susadi,*

*Vah bag'ir qonidin ichkan kirpuging paykonidur.*

*G'uncha la'lin ko'rgali bu la'lu marjonlar to'kup,*

*Inglari olinda yo Rab ko'zlarim namkonidur" [7, 13-bet].*

Yuqoridagi misralarning o'zi ham Shayboniyxonning nozik didli shoir bo'lganligidan dalolatdir. Shayboniyxonni Muhammad Solih ham "Shayboniynoma" asarida yetuk shoir sifatida ta'riflaydi:

*Tab'idur asru biyik himmatidek,*

*So'z - uni yaxshi bori niyatidek.*





*She'rni xo'b tanir zavq bila,  
O'zi ham xo'b aytur shavq bila.  
Turki ab'yoti erur sharbati nob,  
Forsiy she'rlari ham serob [4, 29-bet].*

O'zbekiston DJT universiteti katta o'qituvchisi Munira Sharipova "Muhammad Shayboniyxon ijodi xorijda" nomli maqolasida: "Fransuz sharqshunosi R. Grossit Shayboniyxonga "kamoli e'tiborga loyiq fikr sohibi" deb baho beradi. Jadidchilik harakatining rahnamosi I. Gasprinskiy "Tarixi jadidi Turkiston" nomli maqolasida Shaybonixonni "shijoatli shaxs" deb ta'riflagan. ... Mutaxassislarning qayd qilishlaricha, Muhammad Shayboniy umrining ko'p qismini ot ustida, quvg'inda, jangu jadallarda o'tkazganiga qaramay, turli ilmu san'atlarni puxta egallagan. Bu haqda mashhur sharqshunos A. A. Semenov: "...olimlar Shyboniyxon faqat darbadarlikda kechgan hayotida qanday qilib bunday kamolatga erishdi ekan, deya hayratlanadilar", - deb yozgan edi.

Shayboniyxonning ma'rifatparligi haqida so'z borganda uning faoliyatini yaxshi o'rgangan olim H. Vamberining ushbu fikrlari esga tushadi: "...bu urush odami maorif va madaniyat haqida o'z davrining ruhidan to'la xabardor va zamonasidagi tengdosh shoirlarning aksariyatidan ortiq darajada qalam sohibi bo'lgan. Chunki uning she'rlari, dushmanlari fikrining teskarisi o'laroq, buyuk bir iqridor va go'zal tabiatga molik ekanini, u ham turkiy, ham forsiy, ham arabiy tillrdan asosli suratda voqif ekanini ko'rsatmoqda... U maorif jihatidan oldingi Temur shahzodalarining akariyatidan past emas edi" [18]. Shu bilan birga Muhammad Solihning "Shayboniynoma"sida: "...o'zbek xonining she'rlari Movarounnahr va Xurosonda sevib o'qilgan va g'azallari mug'anniylar tomonidan shaharu qishloqlarda va uning huzuridagi adabiy majlislarda kuy jo'rligida mutolaa qilingan:

*Yuzungni ko'rdum ul chortoq ichindo,  
Ochilmish toza gul yoproq ichindo.  
Tabassum qilsang ul g'uncha labingdin,  
Degoysen bol tomar qaymoq ichindo" [6].*

Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahbob" tazkirasida Shyboniyxon haqida shunday yozgan: "Sohibqiron xon (Shayboniyxon) ilmu fazilatlardan xabardor, aniqrog'i, ularni to'la egallagan kishi edi. She'riyat sohasi va shoirlarga e'riqod - e'tibori katta bo'lgan. Mudom olimu fozillarni o'ziga hamsuhbat qilgan. Yaxshi she'rlari bor.



Bu tuyuqni ham manzur bo'larlik aytgan:

*So'g'd ichinda o'tururlar yobular,  
Yobular mingan oti yobular.  
Yobularning ilgidan el tinmadi,  
Yo bular bo'lsin, bu yerda yo bular"* [3, 30-bet].

Haqiqatan ham nodir iste'dod egasi bo'lgan Shayboniyxon ijodida mumtoz adabiyotimizning go'zal an'analari munosib davom ettirilgan. Jurnalist O'ljaboy Qarshiboyev "Shayboniyxon bizga "begona"mi?" nomli maqolasida: "Hatto bir g'azalida Shayboniyxon Navoiy hazratlari bilan bahslashadi. U Alisher Navoiyning:

*Yo qoshingga qatl uchun ziynat farovon aylading,  
Kim ham etding lojuvard ham zarafshon aylading", g'azaliga javob tariqasida:  
Ey Shayboniy, yor agar lutflik qilsa-qilmasa,  
Bo'lma navmid, ishqida shunchaki afg'on aylading", deya fig'on chekadi [19].*

Munira Sharipova Navoiy bilan bahslashgan shoir devoni xususida quyidagilarni bayon qilgan: "Yurtimiz ilmiy - adabiy jamoatchligi shoir "Devon"i haqida 1991-yilda xorijlik o'zbek olimi Temur Xo'ja o'g'lining "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining "O'zbeklar va dunyo" rukni ostida Muhammad Shayboniyxon tavalludining 540 yilligi munosabati bilan e'lon qilingan "Turk saroyidagi nodir asar" maqolasi orqali ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1991-yil 20-dekabr) xabardor bo'ldi. Maqolada professor Ahmad Zaki Validiy To'g'on Shayboniyning noyob "Devon"ini

To'pqi saroyi kutubxonasidan

topib, 1927-yilda ilm dunyosiga dastlab tuhfa ekanligi eslatib o'tiladi. Temur Xo'ja o'g'li Shayboniy "Devon"ining jahondagi qo'lyozmasi usmonli turk podshohlaridan saroyiga qanday kelib tushganligi ma'lum emasligini aytadi. ...Maqola muallifi, Sakkokiy, Gadoiy, Navoiylar an'anasini davom ettirgan Shyboniy she'rlarinidagi diqqatni o'ziga jalb qiladigan xususiyat shoirning Turkiston yurtiga bo'lgan cheksiz muhabbatini har doim tilga olib turganidir, deb ta'kidlaydi" [18].

Shayboniyxonning Turkiston yurtiga bo'lgan cheksiz muhabbatining go'zal isboti:

*Ketmadi ko'ngildan hech diydori Samarqandning,  
Ko'zumdan uchar har dam diydori Samarqandning.  
Har nechaki shahr o'lsa dunyoda latif, ammo  
Barchadin erur yaxshi bemori Samarqandning.*





*Haq o'z karami birlan ul elni omon tursun,  
Bo'lsin bu jahondin yo'q, ag'yori Samarqandning.  
Ko'pdir Hirida bilgil, bulbul bilan to'ti ham,  
Andalibni uyaltti, dildori Samarqandning.  
Bu shahri Hiri ichra bir zarra safo yo'qtur,  
Jannat kibi xushbo'ydur bozori Samarqandning.  
Qosh yosi bila xo'blar g'amza o'qidin o'tsa,  
Jon javshanidin o'tar o'qlari Samarqandning.  
Shaboniy tilar har dam Buxoru Samarqandni,  
Tangrisi madad bo'lsun, ul yori Samarqandning [19].*

Shu bilan birga "Muhammad Shayboniy o'zini Amir Temur davltining vorisi hisoblagan. Ayni shu sababdan u mamlakat boshqarishda Sohibqirondan ibrat oladi" [20]. Bunga yorqin misol sifatida Shayboniyxon va shayboniylar tomonidan olib borilgan bunday ishlarni keltirish mumkin. Xususan, "Shayboniylar davrida qurilgan Mir Arab madrasasi (1535-1537), Masjidi Kalon (1540-1541), Toqi Zargaron (1559), Toqi Sarrofon (1559), kabi inshootlar va Modarixon madrasalari hoziga qadar me'morchiligimizning ajoyib namunalari sifatida saqlanib turibdi" [5, 307-bet].

Xulosa o'rnida, adabiyotshunos olim Sherxon Qorayev ta'biri bilan aytganda: "Shohlar shoiri Muhammad Shayboniyxon davri adabiy muhiti o'zida bir tomondan Fazlulloh Isfahoniy, Muhammad Solih, Binoiy, Ubehiy kabi qator is'tedodli shoirlarni jamlagan bo'lsa, bu sulolaning deyarli barcha vakillari she'r yozgan yoki adabiyotga, she'riyatga ixlosmand bo'lgan [6, 41-bet].

Ilm ahli oldida esa Shayboniyxon ijodiy merosini chuqur o'rganish, bu merosning dur-u javohirlarini ilm ixlosmandlariga bekamu - ko'st yetkazish mas'uliyati turibdi.

O'ljaboy Qarshiboyev yuqoridagi maqolasida keltirib o'tganidek: "Mirzo Kenjabek so'zi bilan aytganda, endi Muhammad Shayboniyxon asarlari nashr etilsa, ko'zimiz o'ngida yana bir ma'rifatparvar zot, xushxon bir shoir paydo bo'ladi va qalbimizda shohga nisbatan teranroq, tozaroq va iliqroq tuyg'ular uyg'onadi" [19].

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий. Мажолис у-н-нафоис. Мукамал асарлар туплами. 13-том. - Т.: Фан, 1997. - Б. 127.



2. Абдулла Орипов. Сайланма. - Т.: Тафаккур каноти, 2018. - Б. 7.
3. Хасанхожа Нисорий. Музаккири ахбоб. - Т.: Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриети, 1993. - Б. 30.
4. Мухаммад Солих. Шайбонийнома. - Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиет ва санъат нашриети, 1989.
5. Муртазаева Р. Х. Узбекистон тарихи. - Т.: Янги аср авлоди, 2003.
6. Кораев Ш. Узбек хонликларида адабий кечалар (Мухаммад Шайбонийхон ва шабонийлар даври мисолида). Монография. - Т.: Lesson press, 2022.
7. Кораев Ш. Шайбоний султонлар тазкираси. Илмий рисола. - Карши: Intellect, 2023.
8. Кодиров П. Юлдузли тунлар. Роман. - Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиет ва санъат нашриети, 1979.
9. Rahmonova Sh. M. "Shayboniynoma" dostonidagi vazn imkoniyatlari//O'zbekistonda xorijiy tillar 2022. 3-son. - B. 144-154.
10. Sulaymonov I. I. "Boburnoma"da Shayboniixonning g'olibligi va ma'naviy tanazzuli taaviri//Samarqand davlat universiteti "Ilmiy axborotnomasi. 2016-yil, 6-son. - B. 93-98.
11. Турсунов У. ва бoshqalar. Узбек адабий тили тарихи. - Т.: Укитувчи, 1995.
12. То'xliyev B. va boshqalar. Adabiyot. Majmua. 3-kitob. - Т.: Bayoz nashriyoti, 2014.
13. Usmonov Q. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik. - Т.: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.
14. Yo'lchiyev Q. V., Soliyev Sh.X. Sa'dulla Siyoyevning "Dashti qipchoq lochini yoxud Shayboniixon" asarida Shaayboniixon obrazining o'ziga xos xususiyatlari//Oriental Renaissance Innovative, educational, natural social science. October 2022. - B. 803-807.
15. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/muhammad-shayboniixon-gazallar-xurshid-davron-muhammad-shayboniixon-haqida.html>.
16. <https://kh-davron.uz/yangilik//zamiraxon-isaqova-zahiriddin-muhammad-bobur-va-shayboniixon-munosabatlariga-yangicha-yondashuv.html>.
17. <https://kun.uz/uz/news/2021/10/05/shayboniixon-shaxsiyati-nega-etiborsiz-qolmoqda-ozbek-tarixining-eng-ziddiyatli-nuqtalari-haqida-mulohazalar?q=%2Fnews2F2021%2F10%2F05%2Fshayboniixon-shaxsiyati-nega-etiborsiz-qolmoqda-ozbek-tarixining-eng-ziddiyatlari-haqida-mulohazalar>
18. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/munira-sharipova-shayboniy-ijodi-xorijda>
19. <https://rost24.uz/xoz/news/1449>
20. <https://xabardor.uz/uz/post/kibrda-kelgan-jazo-hiylaga-alidanib-boshsiz-qolgan-shayboniixon-2-qism>